



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2026-yil 25-may № 9 Toshkent sh.
Hay'at raisi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev
Ishtirok etdilar: Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov,
D.Xodjiaxmedov, A.O'razkeldiyev, M.Nadjimov

Qatnashganlar:

Respublika studiyasida: O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hay'at a'zolari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari *(ro'yxat bo'yicha)*

Hududiy studiyalarda: Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilish-invest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari direktorlari *(ro'yxat bo'yicha)*

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan hay'at yig'ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti hay'at a'zolari tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

I. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2026-yilning aprel-may oylarida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, joriy yilning II choragiga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida.

(Xamrayev, Xasanov, Abdurazzoqov, Abdullayev, Xudoyberdiyev, Kamilov, Mangliyev, Yunusov, Tagayev, Qurbonov, Jonkayev, Abdurasulov, Rajabov, Suyunov, Aliqulova, Abdug'aniyev, Xo'jaqulov, Astanov, Atabayeva, Usmanov, Sharopov, Raximov, O'razkeldiyev, Karimov, Sheraliyev, Qarshiyev, Ishpulatov, Xamrayev)

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi A.Xasanovning vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 27-apreldagi "Qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatining 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi 2025-sonli qarori ijrosini ta'minlash, 2026-yilning aprel-may oylarida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar haqida hisoboti hamda joriy

yilning II choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining oldida turgan muhim vazifalar to'g'risida axboroti eshitildi.

2026-yilning aprel-may oylarida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilib chiqilganda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri va uning o'rinbosarlari uchun 2026-yilning II choragiga belgilangan jami 40 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlari ijrosi 80,0 foizni, jumladan:

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayevga II chorak uchun belgilangan 11 ta asosiy mezonning ko'rsatkichi 85,0 foizni;

Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatovning 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha II -chorakka belgilangan 8 ta asosiy mezon ijrosi ko'rsatkichi 83,0 foizni;

Vazirning o'rinbosari R.Qarshiyevning 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha II chorakka belgilangan 8 ta asosiy mezon ijrosi ko'rsatkichi 85,0 foizni;

Vazirning o'rinbosari O'.Sheraliyevning 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha II chorakka belgilangan 7 ta asosiy mezon ko'rsatkichi 80,0 foizni;

Vazirning o'rinbosari M.Karimovning 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha II chorakka belgilangan 6 ta asosiy mezon ijrosi ko'rsatkichi 68,0 foizni tashkil etmoqda.

Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashayotganliklari natijasida joriy yilning II choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosi qoniqarsiz holatda.

Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Irrigatsiya tizimlari va yirik gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish boshqarmasi boshlig'i v.b N.Xudoyberdiyev tomonidan Kanallarni tozalash 71,0 foizni, Gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash hamda Gidropostlarni ta'mirlash ko'rsatkichlari 72,0 foizni;

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va suv kadastri boshqarmasi boshlig'i J.Abdurazzoqov tomonidan Suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yerlarni lazer tekislash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish hisobidan suv tejalishiga erishish ko'rsatkichi 75,0 foizni;

Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i v.b A.Tursunaliyev tomonidan "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari tomonidan o'ziga birlashtirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda suvdan foydalanuvchilar kesimida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish ko'rsatkichi 85,0 foizni;

Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xo'jaqulov tomonidan 2026 yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida irrigatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ko'rsatkichi 89,0 foizni hamda 2026 yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida melioratsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ko'rsatkichi 64,0 foizni;

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti direktori A.O'razkeldiyev tomonidan Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish va amaliyotga joriy etish 67,0 foizni hamda Sohaga oid ilmiy asoslangan uslubiy qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish ko'rsatkichi 60,0 foizni;

Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i v.b A.Tagayev tomonidan Nasos stansiyalari va sug'orish tarmoqlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berishning mazmun va mohiyati, afzalliklari hamda tartib va shartlarini tushuntirish bo'yicha seminar-treninglar tashkil qilish ko'rsatkichi 40,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva tomonidan asosiy suv manbalaridan respublika chegarasida olinayotgan suv sarfini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi qurilmalar o'rnatish bor-yo'g'i 3,0 foizni, Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori v.b S.Astanov tomonidan Investitsiya loyihalari doirasida xorijiy investitsiya mablag'larini o'zlashtirish bor-yo'g'i 9,0 foizni tashkil etmoqda.

Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2026-yilning aprel-may oylarida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar haqida hisobotni eshitib va muhokama qilib, joriy yilning II choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 27-apreldagi *"Qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatining 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"*gi 2025-sonli qarori ijrosini ta'minlash, 2026-yilning aprel-may oylarida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarsiz deb topilsin.

Belgilab qo'yilsinki, hisobot davrida faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) qoniqarsiz deb topilganda hamda Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosi ta'minlanmagan taqdirda vazir o'rinbosarlarining mas'uliyati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

2. Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari hamda 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va

topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va erishilmagan natijalarni so'zsiz erishishga qaratilgan aniq ijrochilar va aniq muddatlari belgilab qo'yilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uning ijrosini tashkil etish;

5 kun muddat ichida Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari hamda 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan **har kunlik qilib 1-iyundan 1-avgustga qadar bo'lgan** ish rejalarini ishlab chiqish, va tasdiqlash uchun Vazirga taqdim qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-maydagi "*Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida*"gi PQ-194-son qarori qabul qilinishi munosabati bilan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini samarali tashkil etish maqsadida **27, 28, 29, 30 va 31-may kunlari** vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlarining navbatchiligini tashkil etish;

Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari hamda 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini har hafta yakuni bilan ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida tanqidiy ruhda muhokama qilib joriy yilning II choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

2026-yilning II choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

3. Vazirlikning 2026-yil 23-fevraldagi 4/1-sonli hay'at qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, maqsadli ko'rsatkichlar va hamda uning ijrosini ta'minlash yuzasidan "Yo'l xaritasi" va "Kalendar reja"da belgilangan vazifalarning ijrosi uchun mas'ul qilib tayinlangan Vazirning birinchi o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Axborot-tahlil bo'limi boshlig'i J.Kamolov hamda Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi A.Xasanovlarga:

har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli Farmonlari, Davlat dasturi doirasida joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda Ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturidagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bo'yicha alohida jild (*papka*) tashkil qilish, har bir topshiriq ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni unga jamlash, mas'ul ijrochilar bilan birgalikda har bir topshiriq bo'yicha jadval (chap-o'ng) shaklida tahliliy ma'lumotlar qilish, muddati kelmagan topshiriqlar bo'yicha ijroning borishi, ko'rilgan choralar va qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish, ijrosi ta'minlangan topshiriqlar to'g'risida tegishli ma'lumot va hisobotlarni naryadlarda tikilgan holda taqdim etish;

har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasiga, O'zbekiston mahallalari uyushmasiga, Strategik rivojlanish va islohotlar agentligiga, Taraqqiyot strategiyasi" markazi va "Yuksalish" harakatiga axborot taqdim etib borish;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ning hisobot davri (choraklik) yakuni bo'yicha natijalarni (ma'lumot va tahliliy materiallarni) hay'at yig'ilishi muhokamasiga kiritib borish;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar amalga oshirilgan ishlarni baholash yakunlarini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritib borish hamda unda Vazir va vazir o'rinbosarlari faoliyatining samaradorligi reytingini baholash borasida hamkorlikda ishlash;

har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar Vazir va vazir o'rinbosarlarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

ushbu Farmonlar, Davlat dasturi doirasida joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda Ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturidagi topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish vazifalari yuklatilsin.

4. Axborot xizmati boshlig'i Sh.Suyunov O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi Vaziri va vazir o'rinbosarlarining 2026-yil faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, tele va radiokanallar, vazirlikning rasmiy veb-sayti, Vazirlikning Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazirning birinchi o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev va M.Karimovlarga yuklab, uni nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

II. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 19-maydagi 49-sonli Rayosat bayoni topshiriqlari ijrosini ta'minlash, 2026-yil may oyidagi "Ijro.gov.uz" tizimidagi Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosi 2025-yil may oyi dastlabki yakunlari hamda iyun oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli bajarish bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida.

(Xamrayev, Ibragimov, Karimov, Atabayeva, Raximov, Sheraliyev, Qarshiyev, Ishpulatov, Xamrayev)

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimov tomonidan 2026-yil 19-may kuni Vazirlar Mahkamasining Rayosat majlisi bo'lib, unda "2026-yil yanvar-aprel oylarida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va bayonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari, topshiriqlari va

Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini ta'minlash natijalari hamda 2026-yil may oyi uchun belgilangan topshiriqlarining ijro etilishi to'g'risida"gi masala ko'rib chiqilib, vazirlik tomonidan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash uchun yetarlicha muddat belgilangan bo'lishiga qaramasdan ishni to'g'ri rejalashtirmaslik va barvaqt tashkil etmaslik natijasida 3 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijrosi ta'minlanmasdan qolganligi jiddiy tanqid qilinganligi haqida axborot berildi.

Mazkur yig'ilish bayoni bilan, topshiriqlarning ijrosini ta'minlash uchun yetarlicha muddat belgilangan bo'lishiga qaramasdan ishni to'g'ri rejalashtirmaslik va barvaqt tashkil etmaslik natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 13-oktyabrdagi PF-183-sonli Farmonining 14-bandi, ya'ni 2026-yil 1-aprelga qadar Suv xo'jaligi vazirligiga raqamlashtirish tadbirlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan "Davlat suv kadastr" axborot tizimini ishlab chiqish va ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish topshirig'i bajarilmaganligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-117-son Farmonida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini talab darajasida bajarmagan, topshiriqlar ijrosini ta'minlash uchun yetarlicha muddat belgilangan bo'lishiga qaramasdan ishni to'g'ri rejalashtirmagani va barvaqt tashkil etmagani uchun Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishi bilan vazir o'rinbosari M.Karimovga "hayfsan" e'lon qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilingan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan vazifalarga mas'uliyatsizlik bilan yondashgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va islohotlarning joylargacha yetib borishini jadallashtirish bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishda ishni to'g'ri rejalashtirmagani uchun Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2026-yil 19-maydagi 49-sonli Rayosat majlisi bayonining 5-bandi bilan Suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatov qattiq ogohlantirilgan.

2026-yilning aprel oyida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan vazirlik asosiy ijrochi hisoblangan jami 82 ta topshiriqlardan 79 ta (96,3 foiz) topshiriqlar ijrosi ta'minlanib, 3 tasining ijrosi ta'minlanmasdan qolgan.

Jumladan, vazir o'rinbosari M.Karimov hamda Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-sentyabrdagi PF-177-sonli Farmonining 4-ilovasi 5.1-bandi topshirig'iga muvofiq "Suv hisobi" ATni Qishloq xo'jaligi vazirligining "SropAgro" va Kadastr agentligining "UZKAD" axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan, lekin, Kiberxavfsizlik markazining xulosalari olinmaganligi uchun topshiriq Hisob palatasi tomonidan qayta nazoratga olingan.

Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i R.Raximov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-47-sonli qarorining 13.b-bandi, ya'ni 2026-yil 1-apreldan boshlab moliyaviy sanksiyalar qo'llash bo'yicha elektron dalolatnoma "Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi tomonidan tuzish topshirig'i bajarilgan, lekin Kiberxavfsizlik markazining xulosalari olinmagan.

"Ijro.gov.uz" tizimidagi ijrosi may oyida ijrosi ta'minlanishi shart bo'lgan vazirlik asosiy, teng kuchli hamda hamijrochi bo'lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining (I va II kartoteka) topshiriqlari ro'yxati hamda 25-mayga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazir o'rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda *"Yo'l xarita"lar* 24-aprel kuni eslatma va ijro uchun barcha vazir o'rinbosarlari,

vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

2026-yilning may oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarning 40,0 foizini 10 mayga qadar, 70,0 foizini 15 mayga qadar, 90,0 foizini 20 mayga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25 mayga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash yuzasidan Vazirning birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimovlarga, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlariga hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga tegishli topshiriqlar berilgan.

Vazirlik markaziy apparatida ijro intizomiga rioya etilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosi har haftaning juma kunlari vazirning birinchi o'rinbosari, har haftaning dushanba kunlari Vazir hamda har haftada ikki marotaba O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi R.Abduqodirov huzurida huzurida tanqidiy ruhda muhokama qilinib, uning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'liq va sifatli qilib ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rib borilmoqda.

Lekin, hozirgi kun holatiga jami 11 ta, shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlaridan 4 ta, Prezident Administratsiyasi rahbarining topshiriqlaridan 4 ta hamda Vazirlar Mahkamasining topshiriqlaridan 2 ta topshiriqlarning ijrosi ta'minlanmasdan turibdi.

Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda PQ-394-sonli qarorining 5-bandi, Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi S.Norimatova tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-iyuldagi PQ-225-sonli qarorining 2-ilova 10.2-bandi, Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xo'jaqulov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ-58-sonli qarorining 7-ilova 17.2-bandi topshiriqlari ijrosi ta'minlanmasdan qolmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i v.b A.Tagayev tomonidan Prezident Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli ko'rsatmasining 22.3-bandi topshirig'i, Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva tomonidan Prezident Administratsiyasi rahbarining 2026-yil 27-yanvardagi 02-PA 1/1-484-son ko'rsatmasining 11.2-bandi topshirig'i, Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi S.Norimatova tomonidan 2026-yil 27-yanvardagi 02-PA 1/1-484-son ko'rsatmasining 23.3-bandi hamda Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Melioratsiya obyektlaridan va mexanizmlaridan foydalanish bo'limi boshlig'i R.Kamilov tomonidan Prezident Administratsiyasi rahbarining 2026-yil 27-yanvardagi 02-PA 1/1-484-son ko'rsatmasining 14.1-bandi topshirig'i ijrosi ta'minlanmagan.

Moliya-iqtisod masalalari boshqarmasi boshlig'i J.Jonkayev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 14-maydagi 242-sonli qarorining 15-bandi hamda Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Suv resurslaridan foydalanish boshqarmasi boshlig'i A.Mangliyev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 31-martdagi 135-sonli qarorining 2-ilova 4.1-bandi topshirig'i ijrosi ta'minlanmasdan turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi *"Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PF-117-sonli Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi *"Ijro.gov.uz"* ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli qaroriga muvofiq topshiriqlarning iyun oyida oldingi oylarga nisbatan ko‘pligini hisobga olib, topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlash, ijrochilar tomonidan ishni to‘g‘ri rejalashtirish va barvaqt tashkil etilishi maqsadida 2026-yilning iyun oyida ijrosi ta‘minlanishi shart bo‘lgan vazirlik asosiy, teng kuchli hamda hamijrochi bo‘lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining (I va II kartoteka) topshiriqlari ro‘yxati hamda 25-iyunga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan vazir o‘rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda “*Yo‘l xarita*”lar 8-may kuni eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Vazirning birinchi o‘rinbosari Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev, M.Karimovlarga, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlariga hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2026-yilning iyun oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarning 50,0 foizini 10 iyunga qadar, 70,0 foizini 15 iyunga qadar, 90,0 foizini 20 iyunga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25 iyunga qadar 100,0 foiz qilib ta‘minlash lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining joriy yil 19-maydagi 49-sonli Rayosat majlisi bayoni topshiriqlari ijrosini ta‘minlash, 2026-yil may oyidagi Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini 27-mayga qadar to‘liq bajarish, iyun oyida bajarilishi lozim bo‘lgan “Ijro.gov.uz” tizimi orqali nazoratga olingan Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va bayonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari, topshiriqlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta‘minlash yuzasidan vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining ayrim boshqarma boshliqlari va bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbar-xodimlarining shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida yig‘ilish

Qaror qildi:

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining joriy yil 19-maydagi 49-sonli Rayosat majlisi bayoni hamda vazirlikning 2026-yil 20-maydagi “*Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 19-maydagi 229-F-sonli farmoyishi ijrosi to‘g‘risida*”gi 130-sonli buyrug‘i ***rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. Vazirlar Mahkamasi Rayosati 2026-yil 19-maydagi 49-sonli bayoni bilan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan vazifalarga mas’uliyatsizlik bilan yondashgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va islohotlarning joylargacha yetib borishini jadallashtirish bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajarishda ishni to‘g‘ri rejalashtirmagani uchun Suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari Z.Ishpulatovning ***qattiq ogohlantirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.***

3. Vazirning birinchi o‘rinbosari- Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev, M.Karimovlarga “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ***bajarmaslik holatlari takrorlanayotganligi ko‘rsatib o‘tilsin.***

4. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2026-yil yanvar-aprel oylari davomida ijro intizomiga rioya etish, “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash borasida olib borilgan ishlar **qoniqarsiz** deb topilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 19-maydagi 229-F-sonli farmoyishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash uchun yetarlicha muddat belgilangan bo‘lishiga qaramasdan ishni to‘g‘ri rejalashtirmagani va barvaqt tashkil etmagani sababli topshiriqlarni uzoq muddatdan buyon bajarilmasdan qolayotganligi, ijro intizomiga rioya etish borasida talabchanlikni susaytirib yuborganligi hamda bu borada xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun Vazir o‘rinbosari M.Karimovga **“hayfsan” e‘lon qilinganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

6. “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda ta‘minlash choralari ko‘rmasdan, topshiriqlarning ijro muddatini uzaytirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga taklif kiritganliklari, ijro intizomiga rioya etish borasida talabchanlikni susaytirib yuborganliklari hamda bu borada xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun Suv xo‘jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva hamda Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i R.Raximovlarga so‘nggi marotaba **“ogohlantirish” e‘lon qilinsin.**

Belgilab qo‘yilsinki, kelgusida “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda ta‘minlanmagan taqdirda, ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo‘lgan intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.

7. “Ijro.gov.uz” tizimidagi ijrosi iyun oyida ijrosi ta‘minlanishi shart bo‘lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini 25-iyunga qadar ta‘minlashga qaratilgan vazir o‘rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja 1-ilovaga* hamda *“Yo‘l xarita”lar 2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo‘yilsinki, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda to‘liq va sifatli bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchlilikiga hamda “Ijro.gov.uz” tizimiga o‘z vaqtida kiritilishiga Vazirning barcha o‘rinbosarlari shaxsan mas‘ul hisoblanadilar.

8. 2026-yilning iyun va iyul oylarida “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlash, qat‘iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatish maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlash, qat‘iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatish bo‘yicha respublika Shtabi a‘zolari ro‘yxati *3-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli

ta'minlash, qat'iy tartib, intizom va tizimli nazorat o'rnatish bo'yicha respublika Shtabi (R.Qarshiyev)ga:

bir hafta muddat ichida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish bo'yicha ***har haftaning juma va shanba kunlari*** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida vazirlik Shtabi faoliyatini yo'lga qo'yish hamda Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan hamkorlikda ish olib borish;

har haftaning dushanba va payshanba kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosi haqida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi R.Abduqodirovga ***hisobot taqdim qilish***;

har haftaning juma kunlari vazirning (*ijro intizomi uchun mas'ul*) o'rinbosari, ***har haftaning dushanba kunlari*** Vazir huzurida hamda har oy yakuni bilan vazirlikning hay'at yig'ilishlarida ushbu topshiriqlarning ijrosini muhokama qilinishini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (har oy yakuni bilan) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasini qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

10. Vazirning birinchi o'rinbosari- Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga :

bir kun muddat ichida Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining joriy yil 19-maydagi 49-sonli Rayosat majlisi bayoni hamda mazkur yig'ilish bayonini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ijro intizomiga rioya qilinmaganda, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashilganda intizomiy jazo chorasini muqarrarligi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

2 kun muddat ichida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq ijrochilar va aniq muddatlari belgilab qo'yilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uning ijrosini tashkil etish;

2 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

5 kun muddat ichida Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan

har kunlik qilib 1-iyundan 1-avgustga qadar bo'lgan ish rejalarini Vazirlar Mahkamasining Investitsiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo'jaligi masalalari kotibiyati bilan kelishilgan holda ishlab chiqish, va tasdiqlash uchun Vazirga taqdim qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-maydagi *"Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida"*gi PQ-194-son qarori qabul qilinishi munosabati bilan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini samarali tashkil etish maqsadida **27, 28, 29, 30 va 31-may kunlari** vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlarining navbatchiligini tashkil etish;

joriy yilning iyun va iyul oylarida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash hamda nazoratdan chiqarish bo'yicha Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi bilan ishlash bo'yicha **har haftaning shanba va yakshanba kunlari** vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlarining navbatchiligini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari, 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentyabrdagi 616-son qaroriga muvofiq topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazorat va hisobdorlikni ta'minlash yuzasidan belgilangan tartibga qat'iy amal qilgan holda tashkil etish;

berilgan har bir topshiriqning real ijro holati bo'yicha kundalik nazorat o'rnatish, mas'uliyatni his qilmagan, sustkashlikka yo'l qo'ygan mas'ul rahbarlar va xodimlarga qat'iy choralar ko'rilishi hamda bajarilmagan **har bir topshiriqqa yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligini tanqidiy muhokama qilinishini ta'minlash;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida berilgan topshiriqlarni nazoratdan olish va ijro muddatlarini uzaytirish, **istisno tariqasida, faqatgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'i bilan amalga oshirilishi to'g'risida barchani ogohlantirish;**

berilgan topshiriqlarni **ijro muddatini turli vajlar bilan qayta-qayta uzaytirish holatlariga barham berish** hamda ularni o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini qat'iy nazoratga olish;

har hafta dushanba kuni o'tkaziladigan ijro intizomi bo'yicha muhokamalarda har bir topshiriq bo'yicha mas'ul ijrochilar hisobotini tanqidiy eshitib, muhokama qilgan holda ularning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash choralarini ko'rish va ishlarni kunbay ishlab chiqilgan kalendar grafiklar asosida tashkil etish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashriflari bayonlari loyihalarini moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy ekspertizadan o'tkazishda har bir loyihada nazarda tutilgan topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan resurs va imkoniyatlar mavjudligiga, ijro muddatlari to'g'ri belgilanishiga alohida e'tibor qaratish;

aholi murojaatlarini tizimli tahlil qilish orqali takrorlanayotgan, aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni aniqlash, aniqlangan muammolarni hududlar va tarmoqlar kesimida joyiga chiqib o'rganish va ularni bartaraf etish, muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish, shuningdek, zaruratga ko'ra, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarning **50,0 foizini har oyining 10 sanasiga qadar, 70,0 foizini 15 sanasiga qadar, 90,0 foizini 20 sanasiga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25 sanasiga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash;**

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish vazifalari yuklatilsin.

11. Vazirning o'rinbosari (ijro intizomi uchun mas'ul) R.Qarshiyev, Vazir yordamchisi U.Sultanov hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan I va II kartotekaga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan kunbay tizimida tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (har hafta yakuni bilan) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida vazirlik rahbariyatiga axborotlar taqdim etish vazifalari topshirilsin.

12. Mazkur yig'ilish bayoni topshiriqlarining ijrosini nazorat qilish vazirning o'rinbosari (ijro intizomi uchun mas'ul) R.Qarshiyev zimmasiga yuklatilsin.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay'at yig'ilishi yakunida hay'at raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga bugungi hay'at yig'ilishi qabul qilgan yig'ilish bayoni asosida ***bir kun muddatda*** joylarda 2026-yilning aprel-may oylarida amalga oshirilgan ishlar, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini hamda ***5 kun muddat ichida*** Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan ***har kunlik qilib 1-iyundan 1-avgustga qadar bo'lgan*** ish rejalarini ishlab chiqish va uning ijrosini tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev